

KUL TIGIN BITIKTOSHIDA KELISHIKLAR TAHLILI**Rahmonova Malika Jasur qizi***SamDU Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti**3- bosqich talabasi***MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received: 14.11.2025**Revised: 15.11.2025**Accepted: 16.11.2025*

Mazkur maqolada turkiy tillarning qadimgi yozma yodgorligi hisoblangan Kul Tigin bitiktoshining yaratilishi, o'rganilishi yoritiladi. Bitiktoshda uchragan kelishik qo'shimchalari tahlili, bugungi kundagi o'rni solishtirilgan.

KALIT SO'ZLAR:

*Kul Tigin bitiktoshi ,
qadimgi turkiy til,
kelishiklar, bosh
kelishik, qaratqich
kelishigi, jo'nalish
kelishigi, chiqish
kelishigi, vosita
kelishigi.*

Kul Tigin bitiktoshi marmar bitiktosh bo'lib, turkiy yozuv yodgorliklaridan biridir. Eltarish xoqonning o'g'li Kul Tigin sharafiga qo'yilgan (732 –yil 14- avgust). Ulan Batordan 400 km janubda, Qorabalg'a-sun shahrining xarobalaridan taxminan 40 km shimolda joylashgan. Bitiktoshdagi barcha voqealar Kul Tiginning akasi Bilga xoqon tilidan hikoya qilinadi. Bitiktoshni esa Kul Tiginning jiyani Yo'llug' Tigin yozgan. Ushbu bitikda Bilga xoqon qarindoshlariga va xalqqa murojaat qilgan. Kul Tigin bitiktoshini Bilga xoqon bitiktoshi bilan birga 1889- yil N.M.Yadrinsev Mo'g'ulistonning Kosho Saydam vodiysida Ko'kshin Urxun daryosi bo'yidan topgan. Dastlab uni hech kim o'qiy olmagan. Uni Urxun yozuvini o'rganib chiqqanidan so'ng, daniyalik olim V. Tomsen 1893-yil o'qishga muvaffaq bo'lgan.

Kul Tigin bitiktoshining hajmi:

Bo'yi	3 m 15 sm
Eni	1 m 24 sm
Qalinligi	41 sm

Kul Tigin bitiktoshining marmar taxta ustuni o'rtasiga 5 burchakli qalqon shaklida, balandligi 64 sm, kengligi 40 sm li lavha o'rnatilgan.

Kul Tigin bitiktoshi 84 satrdan iborat:

40 satr yuz tomoniga

13 satrdan 26 satr ikki yon tomoniga

14 satr orqa tomoniga

4 satr toshning taroshlangan 4 qirrasiga yozilgan.

Kelishik kategoriyasi turkiy tillarning bosh qonuniyatlaridan biridir. Tilning tarixiy taraqqiyoti davomida tilimizning ichki qonuniyatlari, o'zgarishi oqibatida uning soni ba'zan o'zgarib ham turgan. Hozirgi tilshunoslikda ularning soni nechta ko'rsatilayotganidan qat'i nazar, kelishik kategoriyasi turkiy tillarda qadimdan bor, bundan keyin ham saqlanib qoladi. Bu kategoriya boshqa tillarning ta'sirida qisqaradi yoki tildan chiqib ketadi, deb qarash umuman xato. (Rahmonov N, Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi 119-bet)

Kelishik qo'shimchasi o'zbek tilida ot, otlashgan so'zlar, va barcha ism guruhida qo'shila oladi. Qadimgi turkiy tilda kelishiklar yettita bo'lib, bugungi kunga uning bittasi qo'llanilmaydi. Qadimgi turkiy tilda ham bosh kelishikning qo'shimchasi mavjud emas. Bitiktoshda eng unumli kelishlardan biri bu qaratqich kelishigi hisoblanadi. Qadimgi turkiy tilda qaratqich kelishigining belgisi quyidagicha -niŋ, -niŋ / -nuŋ, -nũŋ / -iŋ, -iŋ / uŋ, -ũŋ qo'shimchalaridir. Masalan, Olurupan türük bodunuŋ alin törsin tuta birmis, iti birmis. (Taxtda turib turk xalqining , yurtini, hukumatini tutib turganlar, tartibga keltirganlar.)(Kul Tigin 1)(Tört buluŋ qop yaŋi armis sü sülapan tört buluŋdaqi bodunuŋ qop almis. (To'rt taraf butunlay dushman ekan. Lashkar tortib, to'rt tarafdagi xalqni butunlay olganlar.)(Kul Tigin 2) Tabŋaç bodunqa baglik uri oŋlın qul boltı. (Tabg'ach xalqiga bek bo'ladigan o'g'il bolasi bilan qul bo'ldi)(Kul Tigin 7) Ökün körgünin üçün , igidmis bilgä qaganinın.(O'kin, ko'rguliging uchun , tarbiya qilgan dono xoqoningni, yemirilgan ketgan.)(Kul Tigin 23)Barmis bodun ölü yitü yadag'in, yala ŋ in yana kälti.(Ketgan xalq o'la-yita yayov yalang'och qochib keldi.) (Kul Tigin 28)

Yuqoridagi bitiktoshdan olingan matn parchalarida qaratqich kelishining namunalarini ko'ramiz. Bundan tashqari undagi ba'zi so'zlarda ham masalan, qağanin Ölürtimiz, iñiñ tægmiş ärti kabi kichik gaplarda ham qaratqich kelishigining -nñ, -niñ / -nuñ, -nün / -iñ, -iñ / uñ, -ün qo'shimchalari mavjud.

Tushum kelishigi shakllari –g', -g, -ig, -ug, -n, -m, -I oldi orqa variantlari . O'rin-payt kelishigining shakllari – da, -ta . Chiqish kelishigining shakllari –dan, - tan, - din, -tin bu qo'shimchalarning bugungi kundagi kabi bo'lgan. Bitiktoshda esa ularning qo'llanishini nisbatan kamroq. Jo'nalish kelishigining qo'shimchasi ham hozirgi kun bilan deyarli bir xil bo'lgan –qa, -ka qo'shimchalaridir. Bitiktoshlarda tag'qa – toqqa, yerka – yerga shakllarida mavjud bo'lgan. Bundan tashqari, qadimgi turkiy tilda yettinchi kelishik bu vosita kelishigi hisoblanadi. Bu kelishikning belgini –n bo'lib , o'zak-negizning fonetik – fonologik tabiatiga bog'liq ravishda –in, -un oldi va orqa shakllari mavjud. Masalan, Bizniñ sü atı toruq, azuqı yoq ärti (Bizni lashkarimizning oti oriq)(Kul tigin 39). Čaň sänün kälti . (chang Sanun keldi) (Kul Tigin13).

Qadimgi turkiy tilda kelishiklarning ifodalanishi:

Kelishiklarning nomlanishi	Kelishiklarning shakllari	Kul Tigin bitiktoshidagi kelishik shakllari qatnashgan so'zlar
1. Bosh kelishik	Mavjud emas	
2. Qaratqich kelishigi	-nñ, -niñ / -nuñ, -nün / -iñ, -iñ / uñ, -ün	Bodunuñ xalqning
3. Jo'nalish kelishigi	-qa, - ka, -g'a, -ga, -g'aru -garu	Tag'qa - toqqa
4. Tushum kelishigi	-g', -g, -n, - m, -I	Bodunug'
5. O'rin- payt kelishigi	-da, -ta	olurtuqda
6. Chiqish kelishigi	-dan, - tan, -din, -tin, -dun, -da, -ta	bodunta

7. Vosita kelishigi	-n, -in, -un	Qag'anin
---------------------	--------------	----------

Qadimdan bizda mavjud bo'lgan vosita kelishigining shakllari hozirgi o'zbek tilida ham uchrab turadi. Masalan , qishin , yozin kabi so'zlarda.

XIV- XV asrlarga kelib, turkiy tilimizda kelishiklar soni bittaga kamayadi. Avvalgi davrda eng ko'p qo'llangan kelishik bora- bora umuman qo'llanilmaydi. Uning o'rnini o'rin-payt kelishigi va ko'makchilar egallab olinganligini guvohi bo'lamiz.

Xulosa qilib aytganda, qadimgi turkiy tilimizda ham kelishiklarimizning faol ishtiroki va otlarning bog'lanishiga , ularni tushunarli bo'lishlari uchun asosiy vazifani bajarib kelganligi ahamiyatlidir. Aynan hozirda qo'llanishdan chiqib ketgan vosita kelishini ham yana joyiga qaytarishni xohlardim. Sababi uning o'zni hozirgacha ham mavjud va ayrim turkiycha so'zlarimizda yashamoqda. (qishin, yozin).

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov, Rustamov – “Qadimgi turkiy til”. Toshkent “O'qituvchi” 1982
2. N. Rahmonov – “O'zbek tili tarixi”. O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent – 2009
3. Abdurahmonov, Shukurov, Mahmudov – “O'zbek tilining tarixiy grammatikasi”. Toshkent – 2008